

DORI VOSITALARI VA TIBBIY BUYUMLARNI RO'YXATDAN O'TKAZILGANLIK REESTRINING ELEKTRON TIZIMINI YARATISH

F.M. Ganiev

Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 22 dekabrda 352-son qarori ilovasida keltirilgan “Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro'yxatdan o'tkazish hamda ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi berish tartibi to'g'risida” nizomga asosan O'zbekiston Respublikasida dori vositalari va tibbiy buyumlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tibbiyot amaliyotida qo'llash uchun normativ hujjatlariga muvofiq sinovlardan o'tkazilishi (sertifikatsiya) va bu haqdagi guvohnomaga ega bo'lishlari zarur.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Dori vositalari va tibbiy texnika sifatini nazorat qilish bosh boshqarmasi ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomalari reestrini yuritadi. Xozirgi vaqtda bu reestrda 7 mingga yaqin dori vositalari qayd qilingan bo'lib, unda quyidagi ma'lumotlar akslantirilgan:

- dori vositasining savdo nomi;
- dori vositasining lotincha nomi;
- xalqaro patentlanmagan nomi;
- dorining shakli, dozasi, chiqarilish shakli va boshqalar;
- qaysi farmako-terapevtik guruxga tegishliligi (FTG);
- xalqaro anatomo-terapevtik-kimyoviy klassifikatsiya guruxi (ATX);
- ishlab chiqaruvchining nomi, davlati;
- guvohnomaning berilgan sanasi va qayd raqami va boshqalar.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomalari reestri muxim ahamiyatga ega, undagi berilganlar vrachlar, provizorlar va boshqa mutaxassislar, shuningdek oddiy odamlar uchun ham foydali bo'lib, ko'plab dori-darmon vositalari olamida kerakli ma'lumotlarni olishga ko'maklashadi. To'g'ri shakllantirilgan elektron tizim mutaxassislarga turli statistik ma'lumotlar olish imkonini beradi. Jumladan, kasallik turlari bo'yicha dori vositalarining taqsimotlari, qaysi turdagi dorilarga talablarning ko'pligi, davlatimizda ishlab chiqarilayotgan va import qilinuvchi dorilarning nisbatini aniqlash, dori vositalarining davlatlar bo'yicha taqsimoti va boshqalar.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro'yxatdan o'tkazilganlik reestrining berilganlar elektron tizimini shakllantirishda bir nechta spravochniklar, jumladan davlatlar, ishlab chiqaruvchilar, xalqaro patentlanmagan nomlar, FTG, ATX guruxlar spravochniklarini shakllantirish lozim bo'ladi.

Ro'yxatdan o'tkazilganlik guvohnomasi 5 yil muddatga beriladi. Bu muddat ichida guvohnomaga o'zgartirish kiritish (masalan dori vositasining formasi yoki o'rami o'zgarishi, kengayishi natijasida) mumkinligi ko'zda tutilgan.

Guvohnomaning amal qilish muddatini uzaytirish mumkin. Agar guvoxnomaning amal qilish muddati tugasa, u reestrda chiqarilishi kerak. SHu sababli berilganlar bazasining yozuvlari davriylik xususiyatiga ega bo'lishini nazarda tutish lozim.

Dori vositalari va tibbiy buyumlarni ro'yxatdan o'tkazilganlik reestrining elektron tizimi ko'p foydalanuvchilik "mijoz-server" arxitekturasi asosida yaratish kerak. Berilganlar bazasini boshqarish tizimi sifatida Microsoft SQL serverdan foydalanib, Microsoft Visual Studio 2015 dasturlash muxitida ASP.NET MVC 5 texnologiyasi va ADO.NET Entity Frameworkdan foydalanib zamonaviy internet ilovasini yaratish mumkin.

Adabiyotlar

1. Karpova T.S. Bazy dannyx: modeli, razrabotka, realizatsiya. -SPb.: Piter, 2007. - 304 s.
2. Ricardo Peres, Entity Framework Code First Succinctly, 2014.
3. M. Ahmed, Ch. Garret, J. Faircloth, Ch. Payne, W. M. Lee, J.Ortiz, ASP.NET Web Developer's Guide, 2002.